



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.11.2024 yildagi PQ-408-son

Излаш



Кучга кириш санаси

05.12.2024

Қўшимча ахборот

Улашиш



Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
Tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha "YO'L XARITASI"

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

TIBBIYOT MUASSASALARINI FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI VA TIBBIY JIHOZLAR BILAN TA'MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Aholi va tibbiyot muassasalarining sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, ularga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, xarid qilish, yetkazib berish va bemorlarni ular bilan barqaror ta'minlashning yagona tizimini joriy etish maqsadida:

1. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq dori vositalari va tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyoj:

tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi tibbiyot muassasalari, respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, Sog'liqni saqlash vazirligining doimiy faoliyat yurituvchi hay'atlari tomonidan shakllantiriladi. Bunda ehtiyojni hisoblash hududdagi kasallanish ko'rsatkichlari bo'yicha bemorlar soni, bir bemorga talab etiladigan kunlik miqdor, davolash kursining davomiyligi, mavjud zaxira hamda demografik holatni inobatga olgan holda amalga oshiriladi;

budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlar asosida kelgusi yil uchun Davlat budjeti parametrlari bilan bir vaqtda shakllantiriladi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarga o'n besh oylik ehtiyoj asosida shakllantirilib, undan omborxonadagi qoldiq miqdorlarni chegirish orqali aniqlanadi.

2. Belgilansinki, 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

a) O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi **Qonuniga** muvofiq, shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartib va ro'yxatga asosan quyidagi dori vositalari va tibbiy buyumlarning davlat xaridini to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshirishga ruxsat etiladi:

original dori vositalari (ularning ishlab chiqaruvchisi yoki rasmiy yetkazib beruvchisi orqali);

yopiq turdagi laboratoriya uskunasi uchun maxsus reagent, reaktiv va sarflov vositalari;

shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar.

Bunda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida sotib olinadigan dori vositalari va tibbiy buyumlarning shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur miqdorda va hajmda xarid qilinishi bo'yicha mas'uliyat va shaxsiy javobgarlik tibbiyot muassasasi rahbari zimmasiga yuklatiladi;

b) Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlangan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan dori vositalari va tibbiyotda qo'llanadigan buyumlarning amaldagi ro'yxatlari bekor qilinadi;

v) dori vositalari, tibbiy uskunalar va buyumlarning markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan xaridida ularning boshlang'ich narxini aniqlash bo'yicha marketing tadqiqotlari o'tkaziladi;

g) quyidagi dori vositalarini markazlashgan tartibda xarid qilish taqiqlanadi:

umumiy yaroqlilik muddati ikki yilgacha bo'lganda — yetkazib beriladigan vaqtda 30 foizdan ortiq muddati o'tgan;

umumiy yaroqlilik muddati uch yilgacha bo'lganda — yetkazib beriladigan vaqtda 40 foizdan ortiq muddati o'tgan;

umumiy yaroqlilik muddati uch yildan ortiq bo'lganda — yetkazib beriladigan vaqtda 50 foizdan ortiq muddati o'tgan.

Ushbu bandda nazarda tutilgan talablar davlat zaxirasidan chiqarilgan dori vositalarini xarid qilish uchun tatbiq etilmaydi.

3. Tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha "yo'l xaritasi" **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Sog'liqni saqlash vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) "O'zmedimpeks" va "Tibbiyot texnikalariga xizmat ko'rsatish o'quv-ishlab chiqarish markazi" davlat muassasalarini negizida Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida Xaridlar markazini (keyingi o'rinlarda — Markaz) hamda Markazning 13 ta hududiy filialini tashkil etish.

Bunda Markaz "O'zmedimpeks" va "Tibbiyot texnikalariga xizmat ko'rsatish o'quv-ishlab chiqarish markazi" davlat muassasalarining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

b) dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar uchun markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan xaridlarni Markaz hamda ishlab chiqaruvchi (rasmiy yetkazib beruvchi) o'rtasida tuziladigan uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga) shartnoma asosida amalga oshirish;

v) BMTning taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda dori vositalari va tibbiy uskunalarni xarid qilish, saqlash, yetkazib berish va bemorlar ta'minoti tizimini tashkil etish hamda ushbu jarayonlarni raqamlashtirish bo'yicha loyiha (keyingi o'rinlarda — Loyiha) amalga oshirish.

Bunda Loyiha doirasida hududlarda dori vositalari va tibbiy uskunalarni saqlash uchun zarur talablar asosida jihozlangan omborlar tashkil etiladi hamda ularni tibbiyot muassasasigacha yetkazib berish uchun haroratni nazorat qilish moslamalari bilan jihozlangan maxsus avtotransport vositalari bilan ta'minlanadi.

5. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Sog'liqni saqlash vazirligi buyurtmasiga ko'ra tibbiyot muassasalarini dori va sarflov vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy uskunalari, reagentlar, reaktivlar, butlovchi qismlar va boshqa asosiy vositalar (keyingi o'rinlarda — tibbiy tovarlar) bilan ta'minlash uchun davlat xaridlarini amalga oshirish;

xarid qilingan tibbiy tovarlarni zarur talablar asosida saqlash hamda tibbiyot muassasalariga yetkazib berish;

yagona elektron tizim orqali tibbiy jihozlar hisobini yuritish, har bir tibbiyot muassasasi kesimida tibbiy jihozlarning samarali ishlatilishi bo'yicha monitoring olib borish;

tibbiyot muassasalariga tibbiy uskuna xarid qilish uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda ko'maklashish;

sog'liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasalarini tibbiy uskunalari bilan ta'minlash bo'yicha yagona siyosat yuritish, tibbiyot muassasalarini jihozlash bo'yicha minimal talablarni ishlab chiqish, markazlashgan tartibda xarid qilingan tibbiy jihozlarning tibbiyot muassasalarida o'rnatilishini, ularga texnik xizmat ko'rsatilishini tashkil etish hamda soz holatda bo'lishini ta'minlash;

tibbiyot muassasalarini uchun xarid qilingan tibbiy texnikalarning kafolat davrida yetkazib beruvchi tomonidan o'z majburiyatlarining shartnoma shartlariga muvofiq to'liq bajarilishini tashkil etish;

shartnoma asosida tibbiyot muassasalariga ulardagi tibbiy uskunalarni ta'mirlash yoki belgilangan tartibda hisobdan chiqarish bo'yicha ekspert xulosasini berish.

6. Sog'liqni saqlash vazirligi:

a) ikki oy muddatda Loyiha amaliyotga to'liq joriy etilgungacha markazlashgan tartibda xarid qilinadigan tibbiy tovarlarni saqlash va tibbiyot muassasalariga yetkazib berishni outsorsing asosida tashkil etish bo'yicha tender (tanlov) savdolarini e'lon qilsin. Bunda davlat xaridi g'olibi bilan shartnoma imzolash hamda ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash Markaz tomonidan amalga oshiriladi;

b) har yili 15-yanvarga qadar Markaz bilan tibbiy tovarlarni markazlashgan tartibda xarid qilish bo'yicha shartnomalar imzolanishini ta'minlasin;

v) ikki oy muddatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda Markaz va uning hududiy filiallarini tibbiyot muassasalarining bo'sh turgan binolariga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirsin;

g) dori vositalarining bevosita ishlab chiqaruvchilaridan (rasmiy yetkazib beruvchilaridan) uzoq muddatli xaridini amalga oshirish uchun Markaz faoliyatini zamonaviy boshqaruv usullari asosida tashkil etish hamda uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar bilan muzokaralar o'tkazish choralari ko'rsin.

7. Belgilab qo'yilsinki:

Sog'liqni saqlash vazirligi buyurtmasiga ko'ra markazlashgan xaridlarni amalga oshirishda Markaz faoliyatini moliyalashtirish, xarid qilingan tibbiy tovarlarni saqlash hamda joylarga yetkazish tizimini outsorsing asosida tashkil etish, tibbiy uskunalarga xizmat ko'rsatish (butlovchi qismlar va sarflov materiallari bundan mustasno) xarajatlari uchun xarid summasidan 8 foizgacha miqdorda xizmat haqi belgilanadi hamda ko'rsatiladigan xizmatlar uchun ko'zda tutilgan mablag'larning kamida 50 foizi Markazga oldindan o'tkazib beriladi.

Bunda Markaz xizmatlariga to'lovlar uchun zarur mablag'lar har yilgi rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirish uchun Sog'liqni saqlash vazirligiga ajratilgan mablag'lar



Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
Tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha "YO'L XARITASI"

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

hisobidan qoplanadi.

Markazda tibbiy uskunalarni xarid qilishda tibbiyot muassasasining xususiyatidan kelib chiqib, texnik topshiriqlarni ishlab chiqish hamda ularga davriy xizmat ko'rsatishni amalga oshiruvchi tibbiy muhandislar guruhi tashkil etiladi.

8. Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

a) tibbiy tovarlarning markazlashgan tartibdagi xaridi bo'yicha shartnoma tuzilib, avans to'lovlari amalga oshirilgan hamda ushbu shartnoma asosida kelgusi moliya yilida yetkazib beriladigan tovarlar uchun yuridik majburiyat bilan band qilingan mablag'lar qoldig'ining moliya yili yakunida Markazning budjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazib berilishini ta'minlasin;

b) Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda:

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarida qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladigan tibbiyot muassasalarini tibbiy texnika va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash me'yorlari asosida ularni jihozlash uchun zarur mablag'lar ko'zda tutilishini;

tibbiy tovarlarning markazlashgan xaridi uchun ishlab chiqaruvchi (rasmiy yetkazib beruvchi) bilan tuziladigan uzoq muddatli shartnomalarning g'aznachilik xizmati organlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasin.

9. Sog'liqni saqlash vazirligi:

a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda markazlashgan tartibda xarid qilinadigan va ambulator sharoitda beriladigan dori vositalarini reyimbursatsiya dasturi asosida dorixonalar orqali taqdim etish bo'yicha taklif kiritsin.

Bunda tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiritilgan va ambulator sharoitda beriladigan dori vositalari uchun ajratiladigan mablag'lar har yili konsolidatsiyalashgan tartibda Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga rejalashtirilishi ko'zda tutiladi;

b) uch oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (keyingi o'rinlarda — Departament) sog'liqni saqlash tizimida dori vositalari va tibbiy buyumlar xaridining qonuniyligi va maqsadlilikini ta'minlash, ularning manzilli yetkazilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin. Bunda:

dori vositalari va tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish bo'yicha respublika va hududiy hay'atlar tarkibiga bir nafardan Departament xodimlari kiritiladi;

yil yakunida amalga oshirilgan xaridlarning qonuniyligi va maqsadlilikini Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan o'rganiladi.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri A.A. Xudayarov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 29-noyabr,
PQ-408-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 29-
noyabrdagi PQ-408-son qaroriga
1-ILOVA

Tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha "YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Tibbiyot muassasalarida dori vositalari, tibbiy buyumlar va sarflov vositalariga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishni tartibga solish.	Dori vositalari, tibbiy buyumlar va sarflov vositalariga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish tartibini ishlab chiqish.	Idoraviy hujjat	2025-yil yanvar	Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)



Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
Tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha "YO'L XARITASI"

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

2.	Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Xaridlar markazi" davlat muassasasi hamda uning 13 ta hududiy filiali faoliyatini samarali yo'lga qo'yish.	1. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Xaridlar markazi" davlat muassasasi va uning hududiy filiallari faoliyatini tartibga soluvchi nizomlarni ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Xaridlar markazining 13 ta hududiy filiali faoliyatini yo'lga qo'yish, ularni bino, omborxonalar, avtotransport vositalari, zarur asbob-uskunalar bilan ta'minlash choralarini ko'rish.	Idoraviy hujjat Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil yanvar 2025-yil aprel	Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov)
3.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarning xaridini tartibga solish.	1. Markazlashgan tartibda xarid qilinadigan original dori vositalari hamda tibbiyot muassasalari tomonidan xaridi mustaqil amalga oshiriladigan shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar ro'yxatini tasdiqlash. 2. Tibbiyot muassasalari tomonidan shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun dori vositalari va tibbiy buyumlar xaridini amalga oshirish tartibini ishlab chiqish. 3. Dori vositalari va tibbiy buyumlarning dastlabki xarid summasini belgilash uchun quyidagilarni nazarda tutuvchi marketing tadqiqotlarini o'tkazish tartibini tasdiqlash: xarid narxini sun'iy oshirishning oldini olishga, geografik jihatdan yaqin davlatlardagi o'rtacha narxlarni hamda so'nggi uch yildagi narxlarning o'zgarish dinamikasini tahlil qilishga qaratilgan choralarini belgilash; dori vositalari va tibbiy buyumlar xaridini marketing tadqiqotlari asosida lotlarga bo'lgan holda amalga oshirish.	Idoraviy hujjat	2024-yil dekabr 2025-yil mart 2025-yil mart	Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O. Fozilkarimov)
4.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarning referent narxlarini belgilash tartibini qayta ko'rib chiqish.	Xalqaro tashkilot va ekspertlarning tavsiyalari asosida referent narxni shakllantirish tizimi doirasida dori vositalari narxlarini qayd etish tartibini qayta ishlab chiqish.	Idoraviy hujjat	2025 yil may	Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi (X. Turaxujayev), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O. Fozilkarimov)
5.	Tibbiyot muassasalari tomonidan shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar xarid qilinishini takomillashtirish.	Tibbiyot muassasalari tomonidan shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlarni kamida bir chorak uchun talab etiladigan hajmda xarid qilish uchun zarur mablag'larning tibbiyot muassasalariga ajratilishini ta'minlash.	Amaliy chora-tadbirlar	Doimiy	Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O. Fozilkarimov), Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (Z. Ermatov)
6.	Yagona elektron tizim orqali tibbiy jihozlar hisobini yuritish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini joriy etish.	1. Davlat tibbiyot muassasalaridagi tibbiy jihozlar va boshqa asosiy vositalar hisobini yuritish, ularning holatini doimiy monitoring qilib borish bo'yicha elektron tizim yaratish. 2. Tibbiy uskunalar muhandislarini jalb qilgan holda tibbiyot muassasalarida foydalaniladigan asosiy turdagi tibbiy jihozlarni belgilash hamda tibbiy jihozlarning milliy tasnifini ishlab chiqish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil iyul	Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov)

7.	Tibbiy jihozlarni ta'mirlovchi hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot muhandislarini tayyorlashni tizimli ravishda yo'lga qo'yish.	Xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda tibbiy jihozlarni ta'mirlovchi hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot muhandislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil may	Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xudayarov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)
----	---	--	------------------------	--------------	---

Izoh: "Yo'l xaritasida" belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishlab chiqilayotgan hujjat shakli o'zgartirilishi yoki ishlab chiqilayotgan hujjat boshqa bandlarda ko'zda tutilgan hujjatlar bilan birlashtirilishi mumkin. Ikki va undan ortiq hujjatlar birlashtirishda tegishli bandlar bajarilishi uchun belgilangan eng oxirgi muddat ishlab chiqish muddati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 29-
noyabrdagi PQ-408-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-iyuldagi "Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3137-son qarorining **1-bandida**:

a) **ikkinchi xatboshidagi** "O'zmedimpeks" mas'uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o'rinlarda "O'zmedimpeks" MChJ deb yuritiladi)" so'zlari "Xaridlar markazi" davlat muassasasi" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) **beshinch — yettinchi xatboshilar** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha qabul qilingan qarorlari bilan tasdiqlangan Davlat dasturlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish hamda shu maqsadlar uchun ajratilgan budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan o'z vaqtida, maqsadli va samarali foydalanish, shuningdek, tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy uskunalar, reagentlar, reaktivlar, butlovchi qismlar, dori vositalari va sarflash materiallari, tibbiy buyumlar va boshqa asosiy vositalar bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida davlat xaridlari Sog'liqni saqlash vazirligi buyurtmasi asosida "Xaridlar markazi" davlat muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda "Xaridlar markazi" davlat muassasasi uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligida shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochiladi hamda budjet mablag'lari oluvchisi sifatida xarajatlar smetasi o'rnatilgan tartibda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi;

"Xaridlar markazi" davlat muassasasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmat uchun to'lov miqdori xarid summasining 8 foizigacha miqdorda belgilanadi va ushbu to'lovlar Sog'liqni saqlash vazirligi bilan tuziladigan shartnoma asosida vazirlik tomonidan to'lab beriladi;

Sog'liqni saqlash vazirligi buyurtmasiga asosan "Xaridlar markazi" davlat muassasasi tomonidan import shartnomalari asosida tibbiy uskunalar, reagentlar, reaktivlar, butlovchi qismlar, dori vositalari va sarflash materiallari, tibbiy buyumlar va boshqa asosiy vositalarning xaridi "Xaridlar markazi" davlat muassasasiga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki orqali akkreditiv to'lov asosida amalga oshiriladi";

v) **to'qqizinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Xaridlar markazi" davlat muassasasiga xarid qilingan mahsulotlarni saqlash, ularni joylarga yetkazib berish hamda tibbiy uskunalarga xizmat ko'rsatish xizmatini outsorsing asosida tashkil etish huquqi berilsin".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining **18-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"18. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan tartibga hamda ro'yxatga asosan xarid qilinadigan original dori vositalari, shoshilinch yordam ko'rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar hamda yopiq turdagi laboratoriya uskunasi uchun maxsus reagentlar, reaktivlar va sarflash materiallari".

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi "Davlat tibbiyot muassasalari va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4007-son **qarorida**:

a) 5-bandning **"a" kichik bandida**:

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hamda uning hududiy bo'linmalari, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning filiallari, Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi va uning hududiy bo'linmalarining



Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
Tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha "YO'L XARITASI"

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

klirik ordinatura, malaka oshirish, mavzuli o'qish, qayta tayyorlash va baholash bo'yicha pulli tushumlari miqdorining 5 foizi";

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazining barcha turdagi mahsulotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va sertifikatlashtirish bilan bog'liq ko'rsatiladigan xizmatlar tushumlari miqdorining 10 foizi";

"b" kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"b) Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi barcha budjetdan tashqari jamg'armalarning vaqtincha bo'sh mablag'larini tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar";

b) 6-bandning "b" kichik bandidagi "37,5" raqami "70" raqami bilan almashtirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi "Mahalliy ishlab-chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-son qarori 2-bandi "b" kichik bandining to'rtinchi xatboshisi "davlat sirlari" so'zlaridan keyin "hamda Sog'liqni saqlash vazirligining buyurtmasiga asosan aholining ehtiyojidan kelib chiqib, import shartnomalari asosida olib kelinadigan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy uskunalari" so'zlari bilan to'ldirilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5199-son qaroriga 2-ilovaning II bo'limi nomlanishidagi "2025-yil 1-yanvardan" so'zlari "2025-yil 1-apreldan" so'zlari bilan almashtirilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi "Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-411-son qarori 3-bandning "a" kichik bandidagi "2025" raqami "2028" raqami bilan almashtirilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga 1-ilovaning 449, 454, 457, 458, 459, 462, 463, 464, 465, 467, 468 va 469-pozitsiyalari chiqarib tashlansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-197-son qaroriga 2-ilovaning 5-pozitsiyasidagi "O'zmedimpeks" davlat muassasasi" so'zlari "Xaridlar markazi" davlat muassasasi" so'zlari bilan almashtirilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi "Farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-14-son qarori 4-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2025-yil 1-apreldan dori vositalari va tibbiy buyumlar xaridlari Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq lotlarga bo'lgan holda amalga oshiriladi".

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi to'g'risidagi nizomda:

a) 6-bandda "ijro etuvchi apparatini" so'zlari "ijro etuvchi apparati va hududiy bo'linmalarini" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 23-bandning o'n birinchi xatboshisida "ijro etuvchi apparati" so'zlari "ijro etuvchi apparati va hududiy bo'linmalari" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 27-bandda:

beshinci xatboshida "tarkibiy bo'linmalari" so'zlari "tarkibiy va hududiy bo'linmalari" so'zlari bilan, "ijro etuvchi apparatining tuzilmasiga" so'zlari "ijro etuvchi apparati va hududiy bo'linmalarining tuzilmalariga" so'zlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshida "ijro etuvchi apparati" so'zlari "ijro etuvchi apparati va hududiy bo'linmalari" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) 28 va 29-bandlarda "ijro etuvchi apparati" so'zlari "ijro etuvchi apparati va hududiy bo'linmalari" so'zlari bilan almashtirilsin;

d) 31-bandda "xodimlarga" so'zi "Jamg'armaning ijro etuvchi apparati va hududiy bo'linmalari xodimlariga" so'zlari bilan almashtirilsin.

11. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-sentabrdagi "Ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlariga ehtiyojni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 741-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

12. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-yanvardagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 41-son qaroriga 2-ilovaning izohi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Tovarning to'liq nomlanishi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-



Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
Tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha "YO'L XARITASI"

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

tadbirlar to'g'risida"gi 733-son qaroriga muvofiq tavsiflanadi.

Mazkur ro'yxat havo kemalari va aviadvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda qo'llanadigan hamda olib kiriladigan butlovchi va ehtiyot qismlar, detallar va sarflanadigan materiallarga (to'qimachilik mahsulotlari bundan mustasno), shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligi buyurtmasiga ko'ra markazlashgan tartibda xarid qilinadigan tovarlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Mazkur ro'yxatda ko'rsatilgan elektrotexnika va uning qismlarini import qilish bo'yicha nazarda tutilgan cheklovlar davlat buyurtmachilari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda jalb qilingan pudrat tashkilotlariga nisbatan ham tatbiq etiladi".

Izoh: 9-band 2025-yil 1-apreldan boshlab amalga kiritiladi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.12.2024-y., 07/24/408/1005-son)



Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
Tibbiyot muassasalarini dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha "YO'L XARITASI"

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar